

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DIN ISHLARI
BO'YICHA
QO'MITASI



«DINSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI»

*mavzusida respublika
ilmiy-amaliy konferensiyasi*



MATERIALLAR TO'PLAMI XVIII

21-aprel, 2026-yil

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM SHUNOSLIK AKADEMIYASI



DINSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI

*Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari to‘plami*



XVIII

TOSHKENT – 2026

МЕЖДУНАРОДНАЯ АКАДЕМИЯ ИСЛАМОВЕДЕНИЯ
УЗБЕКИСТАНА



АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ РЕЛИГИОВЕДЕНИЯ

*Сборник материалов республиканской
научно-практической конференции*



XVIII

ТАШКЕНТ – 2026

INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF UZBEKISTAN



ACTUAL PROBLEMS OF RELIGIOUS STUDIES

*Proceedings of materials of the Republican scientific
and practical conference*



XVIII

TASHKENT – 2026

Alimova M., Ernazarov O.

Dinshunoslikning dolzarb muammolari [Matn]: respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami / M.Alimova, O.Ernazarov. – Toshkent: “O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2026. – 424 b.

Mas’ul muharrir:

E.Daminov – *tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

Tahrir hay'ati:

**O.Ernazarov, M.Alimova, N.Nizemetdinov, R.Urazova, R.Isakdjanov,
M.Abdullayeva, G.Xudoyberganova, L.Alidjanova, D.Turdiyeva, A.Nosirova,
M.Abdupattayev, N.Turambetov**

Tuzuvchi:

O.Ernazarov – *tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

Taqrizchilar:

M.Muhammadsiddiqov – *siyosiy fanlar doktori, professor*

Sh.Ziyodov – *tarix fanlari doktori, professor*

Ushbu to'plam O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasida har yili an'anaviy tarzda o'tkaziladigan “Dinshunoslikning dolzarb muammolari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallarini o'zida mujassam etgan. To'plamda respublikamizdagi oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida dinshunoslik fanlari bo'yicha dars beruvchi professor-o'qituvchilar, dinshunoslik sohasi taniqli olimlari, islomshunos, sharqshunos, manbashunos, tarixchilar, shuningdek, yosh tadqiqotchilarining ilmiy izlanishlari asosida yozilgan maqolalar jamlangan. Mazkur to'plam materiallarida diniy bag'rikenglik, milliy va diniy qadriyatlar uyg'unligi, ajdodlar ilmiy-ma'naviy merosining hayotimizda tutgan o'rni o'z ifodasini topgan. To'plam dinshunoslik sohasida izlanish olib borayotgan ilmiy tadqiqotchilar, professor-o'qituvchi va pedagoglarning ilmiy-amaliy faoliyatlarini samarali tashkil etishda muhim qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

To'plamga kiritilgan materiallarda keltirilgan raqam, fakt va ma'lumotlar uchun mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi ilmiy va o'quv-uslubiy kengashining 2026-yil 28-apreldagi 8-son majlisi qarori bilan nashrga tavsiya etildi.

O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasining 2026-yil 21-maydagi 03-07/4398-son xulosasiga asosan tayyorlandi.

© “O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi”
nashriyot-matbaa birlashmasi, 2026

SO‘Z BOSHI

Bugungi globallashuv sharoitida din omili insoniyat hayotining ajralmas qismi sifatida aks etmoqda. Shu bois dinni akademik asosda, xolis va ilmiy yondashuvlar orqali o‘rganish har qachongidan ham dolzarb vazifaga aylanmoqda. “Dinshunoslik” fani nafaqat din haqidagi bilimlarni tizimli o‘rganish, balki turli e’tiqodlar o‘rtasida o‘zaro tushunish va bag‘rikenglikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ayni paytda dunyoning turli mintaqalarida kuzatilayotgan ziddiyatlar shuni ko‘rsatadiki, muammolarga kuch ishlatish yoki qarama-qarshilik bilan emas, balki ma’rifat, muloqot va o‘zaro hurmat asosida yechim topish mumkin. Turli din va e’tiqod vakillarining qadriyatlariga hurmat bilan yondashish – tinchlik va barqarorlikning muhim omilidir.

Mamlakatimizda ham ushbu yo‘nalishda tizimli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, umumta’lim maktablarida “Tarbiya” fani joriy etilgani, oliy ta’lim muassasalarida esa “Dinshunoslik” fanining o‘qitilishi yo‘lga qo‘yilgani yosh avlodni ma’naviy yetuk, keng dunyoqarashli etib tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi ochilish marosimida aytilgan quyidagi fikrlar alohida e’tiborga loyiq: “Dunyoda dinlararo ziddiyatlar tobora kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda bag‘rikenglik, o‘zaro tushunish va totuvlik kabi umuminsoniy g‘oyalarni keng targ‘ib etish har qachongidan ham muhim”.

Konferensiyada bildirilgan ilmiy asoslangan fikr va takliflar “Dinshunoslik” fanini yanada takomillashtirish, uning ilmiy va pedagogik salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi, deb ishonamiz. Konferensiyada ma’ruza qilgan olimlarning tajribasi va ilmiy yondashuvlari ushbu sohaning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilab berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Konferensiyada muhokama qilingan masalalar, xususan, dunyoviy va diniy ta’limga oid muammolar borasida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar natijalari bilan ilmiy jamoatchilikni tanishtirish, respublikamiz ta’lim muassasalarida dinshunoslikka oid fanlarni o‘qitishni yanada

takomillashtirish, diniy bag‘rikenglik g‘oyalarini umumbashariy qadriyat sifatida mustahkamlash bilan bog‘liq bo‘lib, ular respublikamiz milliy taraqqiyoti, tinchlik va barqarorligining kafolati bo‘lib xizmat qiladi, degan umiddamiz.

Anjuman materiallari to‘plamiga kiritilgan ma’lumotlar kelajagimiz bo‘lgan yoshlarning mamlakatimizda demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishning yangi bosqichida amalga oshirilayotgan qat’iy islohotlarning mazmun-mohiyatini yanada chuqurroq anglab yetishida ularga ruhiy va ma’rifiy kuch-quvvat berishi, shubhasiz.

Muzaffar Kamilov,

*O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik
akademiyasi rektori, tarix fanlari nomzodi, dotsent*

законодательства с международными стандартами прав человека и развитием диалога между государством, религиозными организациями и экспертным сообществом. Важным направлением является также цифровизация административных процедур, что способствует повышению прозрачности государственного управления и снижению коррупционных рисков.

Таким образом, законодательные реформы в религиозной сфере являются важным элементом модернизации правовой системы Республики Узбекистан. Принятие Концепции обеспечения свободы совести граждан в 2025 году свидетельствует о переходе к системному и комплексному подходу в регулировании религиозных отношений. Свобода совести рассматривается не только как индивидуальное право человека, но и как важная общественная ценность, способствующая укреплению межконфессионального согласия, социальной стабильности и развитию правового государства.

* * *

Bexzodjon Ro‘zaliyev,

*O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
“Islom iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar” fakulteti
o‘quv ishlari bo‘yicha dekan o‘rinbosari*

DINIY DUNYOQARASHNING STRUKTURAVIY TAHLILI

СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ РЕЛИГИОЗНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ

STRUCTURAL ANALYSIS OF RELIGIOUS WORLDVIEW

Kalit so‘zlar: diniy dunyoqarash strukturasi, bilimlar, qat’iy ishonch, e’tiqod, baholar, qadriyatlar, normalar; his-tuyg‘u, iroda, axloq, amaliy faoliyat, diniy tashkilot.

Annotatsiya: Insoniyat taqdirini belgilab beradigan muhim o‘zgarishlarga sabab bo‘lgan globallashuv jarayoni, tabiiyki, ko‘plab shaxs va jamiyatlarni yaqindan tashvishga solgan va solib kelmoqda. Ayniqsa, bu jarayonning keyingi bosqichlarida turli sohalarda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan ko‘p qirrali o‘zgarishlar nafaqat faol rol o‘ynaganlar, balki befarq qolganlarning ham hayotiga xuddi shu darajada yoki undan ham ko‘proq ta’sir ko‘rsatish qudratiga ega bo‘ladi. Shu

bois bizlar ham hamma kabi bu jarayonning tabiati, dinamikasi, rivojlanish yo'li va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan natijalari haqida o'ylashimiz, voqealar rivojini yaqindan kuzatib borishimiz va bu jarayonning afzalliklari va kamchiliklariga tayyor bo'lishimiz kerak. Qolaversa, bu ham bizlarning tarixda qolishimiz shartidir.

Ключевые слова: структура религиозного мировоззрения, знание, твердая вера, убеждения, оценки, ценности, нормы; эмоции, воля, мораль, практическая деятельность, религиозная организация.

Аннотация: Процесс глобализации, вызвавший значительные изменения, определяющие судьбу человечества, естественно, вызывал и продолжает вызывать большой интерес у многих людей и обществ. В частности, многогранные изменения, которые могут произойти в различных областях на более поздних этапах этого процесса, окажут такое же или даже большее влияние на жизнь не только тех, кто играл активную роль, но и тех, кто остался равнодушным. Поэтому мы, как и все остальные, должны задумываться о природе, динамике, пути развития и возможных последствиях этого процесса, внимательно следить за развитием событий и быть готовыми к преимуществам и недостаткам этого процесса. Более того, это также условие нашего пребывания в истории.

Keywords: religious worldview structure, knowledge, firm belief, belief, assessments, values, norms; emotion, will, morality, practical activity, religious organization.

Annotation: The process of globalization, which has caused significant changes that determine the fate of humanity, has naturally been and continues to be of great concern to many individuals and societies. In particular, the multifaceted changes that may occur in various areas in the later stages of this process will have the same or even greater impact on the lives of not only those who played an active role, but also those who remained indifferent. Therefore, we, like everyone else, must think about the nature, dynamics, path of development and possible consequences of this process, closely monitor the development of events and be prepared for the advantages and disadvantages of this process. Moreover, this is also a condition for us to remain in history.

Hozirgi axborotlashuv jarayonida mahalliy hamma narsa aralashib ketadi va globallashadi, hech bir jamoa boshqa segmentlar uchun yopiq va boshqa joylarda sodir bo'layotgan voqealarga befarq qola olmaydi. Hozirgacha mahalliy bo'lib qolgan yomon va yaxshi narsalar global

miqyosda aylanish imkoniyatini topadi. Globallashuv bilan jamiyatimizga tanish bo‘lmagan ko‘plab xurofiy e’tiqodlar, mafkuralar va zararli fikr harakatlari xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizga yetib boradi va bularning barchasi salbiy oqibatlariga olib keladi. Ijtimoiy tuzilmamizni tanazzulga olib keladigan muammolardan ayniqsa ehtiyot bo‘lishimiz kerak. Masalan, sog‘lom e’tiqodga ega bo‘lmaganlar buzg‘unchi g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi diniy oqimlar ta’siriga tushib hijrat va jihod kabi chaqiriqlarga aldanib tinch va farovon yurtimizni tashlab xorijda sarson-sargardon bo‘lishlari mumkin. Individualizm asosiy tendensiyaga aylanishi va oilaviy aloqalar zaiflashishi oqibatida jamiyatning bolalar, ayollar va qariyalar kabi zaif qatlamlari zarur g‘amxo‘rlik va e’tibordan mahrum bo‘lishlariga olib keladi. Yaxshi oilaviy tarbiyadan mahrum, mustahkam ta’lim olish imkoniyati bo‘lmagan kishilar turli buzuqliklarga bosh urishlari mumkin. Bu o‘zgarishlarning barchasi aholi salomatligi va xavfsizligiga jiddiy tahdid solishi mumkin.

Diniy dunyoqarash strukturasi va uni o‘ziga xos xususiyatlarini atroflicha o‘rganish hamda tahlil qilish o‘z ahamiyatni jihatidan eng muhim sanaladi. V.Lavrinenko va V.Ratnikova din strukturasi²⁰⁴ning tarkibiy qismlari haqida shularni bayon qiladi. Birinchisi, g‘ayritabiiylik va ilohiylik ishonch-e’tiqodiga asoslangan diniy ideologiya va diniy psixologiya kabi ikkita o‘zaro bog‘liq va bir vaqtning o‘zida bir-biriga nisbatan mustaqil darajadan iborat diniy ong. Ikkinchisi, ishonuvchilar ramziy xatti-harakatlar yordamida g‘ayritabiiy va ilohiy kuch-qudratga ta’sir qilishga intilish bo‘lgan diniy ibodat. Uchinchisi, din faoliyat olib borishida muhim ahamiyat kasb etgan diniy tashkilot. Demak, har bir diniy ta’limotda ilohiy kuch-qudratga e’tiqod qiluvchi diniy ong. Turli-tuman marosimlar bilan undan madad kutish uchun diniy ibodat xarakterli hisoblanadi. Shuningdek, ularni birlashtiruvchi diniy tashkilot ham bo‘lishi zarur.

A.Kruglov din strukturaviy²⁰⁵ munosabatda juda qiyin tuzilishga ega va u quyidagilardan iborat, deb ta’kidlaydi. Birinchisi, diniy tushuncha, tasavvur, g‘oya, mafkura, o‘y-fikr, maqsad, niyat, kayfiyat, his-tuyg‘u, sezgi-idrok, bilish va ruhiy holat kabilarni qamrab oluvchi diniy ong. Ikkinchisi, ibodat qilish, topinish, sig‘inish, marosim, rasm-rusum, udum, qurbonlik qilish,

²⁰⁴ Философия / Под ред. проф. В.Н.Лавриненко, проф. В.П.Ратникова. – Москва: ЮНИТИ-ДАНА, 2004. –С. 537-539.

²⁰⁵ Круглов А.А. Основы религиоведения. – Минск: ТетраСистемс, 2002. –С. 63-65.

roʻza, nafsni tiyish, duo qilish, iltijo qilib soʻrash, bayramlar kabilardan iborat diniy ibodat. Uchinchisi, diniy ibodat marosimlarini yurituvchilar va dindorlarni birlashtiruvchi ijtimoiy institutlar tarkibiga kiruvchi diniy muassasa, idora, birlashma va boshqa uyushmalarni ifodalovchi diniy tashkilot. Demak, inson ongi shakllanishida his-tuygʻu va sezgi-idrok, tasavvur va tushunchalar, oʻy-fikr va gʻoyalar muhim ekaligini hisobga olgan har bir diniy taʼlimot birinchi navbatda ularga eʼtibor qaratadi. Ularni diniy unsurlar bilan boyitadi. Diniy qarashlar qanchalik darajada oʻzlashtirilganligi ibodat marosimlarini amalga oshirish jarayonida oydinlashadi. Ibodat masalalariga munosabat bildirishiga qarab insonni dindorligini bilib olish mumkin. Shuningdek, dindorlarning hayotida diniy tashkilotlar juda muhim ahamiyatga ega. Chunki, diniy muassasalar bir dinga mansub boʻlgan dindorlarning ibodat qilish, oʻzaro tanishib birlashish va ularni mavjudligini bildiruvchi makondir.

A.Radugin bu masalada din “minimumi” muammosi muhim ahamiyatga ega, deb yozadi. Eng avvalo, bu “minimum”ni qidirish kerak boʻlgan diniy hayotning maʼlum sohasi bilan bogʻliq boʻlib, uchta asosiy yondashuv²⁰⁶ oydinlashadi. Birinchi yondashuvda, bu “minimum”ni diniy ongning doirasidan qidirish lozim: qarashlar, tasavvurlar, his-tuygʻularni oʻziga xos xususiyatlari va ishonuvchilarning kechinmalari. Ikkinchi yondashuvda, dinning oʻziga xos xususiyati ibodat amali, sigʻinish faoliyati bilan bogʻliqdir. Uchinchiyondashuvda, diniy tashkilotlar bilan bogʻliqdir. Demak, din borligi insonning qarashlari, tasavvurlari va ruhiyatida aks etishi tabiiydir. Chunki, biror bir voqea-hodisaga munosabat bildirishda oʻy-fikr va nuqtai-nazar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Masalan, insonga berilgan yoshlik davrida ilm olib, oʻz kelajagi uchun zamin hozirlashi, ota-onasiga itoat etib ezgu va yaxshi ishlar qilishga intilishi zarur. Insonlarga ozor berib, turli-tuman yomonliklarni qilib tubanlikka qarab ketishi barcha diniy taʼlimotlarda qoralanadi. Shuningdek, ibodat din namoyon boʻlishining eng muhim qismlaridan biri hisoblanadi. Chunki, ishonch-eʼtiqod ibodatda yuzaga chiqadi. Dindorlar oʻzlarining ishonch-eʼtiqodlarini yashashi uchun amalga oshiradigan ibodat marosimlari aniq belgilab qoʻyilgan joylarda bajarilishi zarur. Shuningdek, inson maʼnaviy tarbiyasida diniy ishonch-

²⁰⁶Радугин А.А. Введение в религиоведение: теория, история и современные религии. – Москва: Центр, 2000. –С. 27-29.

e'tiqod, ibodat va tashkilot muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, fikr va qarashlarini shakllantirib baho berish qobiliyatini o'stiradi. Ibadat chog'ida sabr-qanoat va barchani teng ekanligini o'rgatadi. Diniy muassasada inson birdamlik, o'zini tutish va o'zaro hurmat-e'tiborni o'rganadi.

M.Pismanik din strukturasi²⁰⁷ yuzasidan fikr bildirib quyidagilarni bayon qiladi, uning to'rtta asosiy komponentini ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchisi, har bir dinning o'ziga xos xususiyati bo'lib, uning ma'naviy yadrosini tashkil etuvchi diniy ishonchdir. Ikkinchisi, din tarafdorlari odob-axloqi va munosabatlarining o'ziga xosligidir. Diniy-e'tiqodiy motivlar insonni juda ko'p xatti-harakatlarini yo'naltiradi va uning aloqalarini yuzaga keltiradi. Uchinchisi, diniy ishonch bevosita ibodatda moddiylashtiriladi. Sig'inish va topinish faoliyatlarini e'tiqoddan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Muqaddas manbalarda qat'iy ravishda amalga oshirilishi bayon qilingan o'ziga xos sig'inish amaliyotlari Xudo bilan aloqa o'rnatishning sub'ektiv formasi hisoblanadi. To'rtinchisi, diniy ishonch nafaqat, odob-axloq, munosabatlar va ibodatda, balki, tashkilotlar faoliyatida ham moddiylashtiriladi. Sotsiologlarning ta'kidlashicha, din o'zi bilan institutlashgan ta'lim-tarbiyani ifodalaydi. Ya'ni, din o'ziga xos institut-muassasalar va boshqa tashkilot strukturalari bilan jamiyatda barqaror ishlab turishini ta'minlaydi. Qolgan komponentlar bu ma'naviy yadroni moddiylashtirish uchun intilishdan o'zga narsa emas. Turli dinlardagi o'ziga xosliklar bo'lishiga qaramay shak-shubhasiz ulardagi o'xshashliklarni ajratib olish qiyin emas. Ulardagi dunyoqarashlik asoslari bir xil va ularning yashash formalari bir-biriga juda yaqindir. Masalan, insondagi diniy ishonch qanchalik xolis va mustahkam bo'lsa, uning odob-axloqi va munosabatlarida e'tiqodning namoyon bo'lishi darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. Xudoga bo'lgan ishonch-e'tiqod ibodat faoliyati jarayonida aniq aks etadi. E'tiqodi sust va e'tiborsizlik muqaddas kitoblarda bayon qilingan amallarni bajarishlikda yaqqol ko'rinadi. Din ta'limotlariga oid bilimlar beriladigan eng asosiy makon bu diniy tashkilot hisoblanadi.

V.Kudryavsev din murakkab ijtimoiy tizim sifatida o'zining ichki strukturasi²⁰⁸ga ega bo'lib, bir qator komponentlardan iborat, deb ta'kidlaydi.

²⁰⁷ Религия в истории и культуре / Под ред. проф. М.Г.Писманика. – Москва: ЮНИТИ-ДАНА, 2000. – С. 34-37.

²⁰⁸ Кудряцев В.В. Лекции по истории религии и свободомыслия. – 3-е изд., испр. и доп. – Минск: ТетраСистемс, 1998. – С. 12-17.

Birinchisi, din tizimini belgilovchi asosiy element diniy ong. U orqali dinning boshqa elementlarini ijtimoiy determinatsiyasi amalga oshiriladi. Ikkinchisi, ibodat faoliyati jarayonida hosil bo'lib, Xudo bilan ishonuvchi odam va o'zaro insonlar o'rtasidagi diniy munosabatlar. Uchinchisi, butun borliqni amaliy-ma'naviy o'zlashtirib, o'z ichiga ibodat bilan bog'liq bo'lgan va ibodat bilan bog'liq bo'lmagan faoliyatni qamrab oladigan diniy faoliyat. To'rtinchisi, har qanday rivojlangan diniy tizimning tashkiliy-tartibiy strukturasi bo'lmish diniy tashkilotlar. Demak, diniy ta'limotlar tarixiga nazar tashlansa, dinning asosi ishonch-e'tiqod bo'lib, inson qarashlari, g'oyalari, bilimlari uning ta'siri ostida shakllanib, qadriyatlar paydo bo'ldi. Ishonuvchilarning Xudo bilan aloqa va munosabat o'rnatishi diniy ibodatlar va marosimlarda amalga oshirilgan. O'z navbatida ibodatlar va bayramlar maxsus joylarda olib boriladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, din quyidagi strukturaviy komponentlardan tashkil topgan murakkab tuzilma ekanligi ma'lum bo'ldi. Birinchisi, diniy ong bo'lib, ishonch, e'tiqod, qarashlar, tasavvurlar, g'oyalar, ideyalar, tushunchalar, fikrlar, nuqtai-nazarlar, bilimlar, baholar va qadriyatlarni qamrab oladi. Ikkinchisi, diniy faoliyat bo'lib, unga ibodatlar, sig'inishlar, marosimlar, urf-odatlar, rasm-rusumlar, an'analar, bayramlar, ta'lim berish va olish faoliyatlari, diniy ongni shakllantirish uchun amalga oshiriladigan ishlar va faoliyatlar kiradi. Uchinchisi, diniy munosabat ishonuvchilarni Xudo bilan aloqasi, ishonuvchilarni o'zaro munosabatlari, tashkilotlarning o'zaro va boshqa muassasalar bilan munosabatlari kiradi. To'rtinchisi, diniy tashkilot ishonuvchilarni birlashtiruvchi muassasa va birlashmalar, diniy tizim bilan bog'liq turli tashkilotlar kiradi.

Dunyoqarashning strukturasi, uning tarkibiy qismlari masalasida turlicha yondashuvlar mavjud. Xususan, O.Mitroshenkov dunyoqarash quyidagi komponent²⁰⁹larni qamrab oladi, deb ta'kidlangan. Birinchisi, dunyo va inson haqidagi umumiy bilimlar hamda ma'lumotlarni qamrab oluvchi bilish komponenti. Ikkinchisi, insonning hayotiy pozitsiyalari, nuqtai-nazarlari, fikrlarini belgilovchi ideallar, g'oyalar, qadriyatlar, ishonch-e'tiqodlar va normalar kabilarni o'z ichiga oluvchi baholar, qadriyatlar va normalar komponenti. Uchinchisi, insonni muayyan ish-harakat, faoliyatga tayyorligini shakllantiruvchi, uning roziligini yuzaga keltiruvchi, shaxsiy

²⁰⁹Философия / Под ред проф. О.А.Митрошенко. – Москва: Гардарики, 2004. –С. 23-24.

yo'naltirish va yo'nalishini aniqlash tizimidan iborat axloqiy-irodaviy komponent. To'rtinchisi, bilimlar, ishonch-e'tiqodlar, yo'naltirishlar, ko'rsatmalar, qadriyatlarga oid yo'nalishlarini amalga oshirish bo'yicha faoliyat dasturidan iborat amaliy komponent. Demak, inson dunyoga kelib ulg'ayib voyaga etish jarayonida atrof-muhiti va uni o'rab turgan olam haqida ma'lumotlar ola boshlaydi. Yig'ilgan turli-tuman ma'lumotlar insonni nuqtai-nazarlari va qarashlarini belgilovchi bilimga aylanadi. Bilimlar insonning ruhiyatida qay darajada o'rin olganligi va uning odob-axloqiga ta'sir etganligi juda muhim ahamiyatga ega. Bilimlar va uning asosida shakllangan baholash qobiliyatiga ko'ra, dunyoda hayot kechirish davomida inson biror bir xatti-harakatni amalga oshirib, faoliyat yurita oladigan shaxs sifatida shakllanadi.

A.Radugin esa, dunyoqarashning strukturaviy elementlari sifatida to'rtta asosiy komponent²¹⁰larni keltirib o'tadi. Birinchisi, dunyo manzarasini aniq, ilmiy, universal va har tomonlama ifodalovchi bilish komponenti. Ikkinchisi, baholar, qadriyatlar, ideallar, g'oyalar, oliy maqsadlar, yuksak orzular, barkamol va mukammal namunalar, timsollar, ishonch-e'tiqod, maslak, imon, normalar – qonun tusiga kirgan umummajburiy tartib-qoidalar, dastur va ko'rsatmalar bo'lgan xatti-harakatlar kabilarni o'ziga qamrab oluvchi baholar, qadriyatlar va normalar komponenti. Uchinchisi, bilimlar, qadriyatlar va normalar amaliy faoliyatda qo'llanilib, insonning shaxsiy qarashlari, ishonch-e'tiqodining ajralmas qismiga aylantiruvchi emotsional-irodaviy komponent. To'rtinchisi, ma'lum bir shart-sharoitlar, voqea-hodisalar, ahvol va vaziyatlarda insonni muayyan turdagi faoliyatga real tayyorlovchi amaliy komponent. Demak, dunyoda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni to'g'ri baholay olishi uchun ilmiy bayon qilingan ma'lumotlarga ta'yanish muhim asos hisoblanadi. Qadriyatga aylangan bilimlar majburiylik kasb etishi, uni emotsional jihatdan o'zlashtirilishining teranligiga asoslanadi. Hayot davomida bo'ladigan qiyinchilik va to'siqlarni engib o'tib kelajakka umid bilan qarab qadam tashlash irodaga bog'liq bo'lib, uning mustahkamligi va qat'iyligi faoliyat olib borilganda o'z isbotini topadi.

A.Richkov va B.Yashin dunyoqarash strukturasi²¹¹ni shunday tasavvur etish mumkin, degan fikr o'rta tashlangan. Birinchisi, bilimlar. Ikkinchisi,

²¹⁰Радугин А.А. Философия. – Москва: Центр, 1997. –С. 12-14.

²¹¹Рычков А.К., Яшин Б.Л. Философия: 100 вопросов – 100 ответов. – Москва: ВЛАДОС, 2002. –С. 8-9.

qat'iy ishonch va imon-e'tiqod. Uchinchisi, qadriyatlar va normalar. To'rtinchisi, amaliy faoliyat. Demak, inson bilimlari qachonki, qat'iy ishonchga aylangandan keyingina qadriyat darajasiga chiqadi. Shundan so'ng, bilimlar amaliy faoliyatda qo'llaniladi.

V.Kirillov, S.Popov, A.Chumakov dunyoqarash strukturasi²¹² quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi, deb ta'kilaganlar. Birinchisi, bilimlar tizimi. Ikkinchisi, qat'iy ishonch. Uchinchisi, baholar. To'rtinchisi, amaliy faoliyat. Demak, har bir inson bilimlariga asoslanib, atrofida sodir bo'layotgan voqeahodialarga baho berishi va biror bir amaliy faoliyatda bo'lishi uchun qat'iy ishonch bu zanjirdagi ajralmas xalqa hisoblanadi.

O.Danilyan va V.Taranenko shularni bayon qiladilar. Dunyoqarash murakkab ma'naviy hodisa bo'lib, u butunlik, barcha tarkibiy qismlarning birligi bilan ajralib turadi. Dunyoqarashning strukturasi²¹³ni quyidagi elementlar tashkil etadi va unda muhim rol o'ynaydi. 1. Dunyoqarashning asosiy axborot bazasi hisoblangan – umumiy bilimlar. 2. Ma'naviyatning ichki ijtimoiy-psixologik elementlari bo'lib, u tufayli dunyoqarash bilimlari idrok qilinadigan yoki aksincha, rad etiladigan – ishonch. 3. Odamlarning ehtiyojlari va manfaatlariga, muayyan jamiyat madaniyatiga asoslangan atrofda dunyo hodisalariga ijobiy yoki salbiy munosabat hisoblangan – baholar. 4. Voqelikni maqsadli aks ettirishning dunyoqarash shakli, mukammallikning aqliy modeli, pirovard maqsad sifatida intilishi kerak bo'lgan me'yor hisoblangan – ideallar. 5. Ijtimoiy ma'lumotlarni, ijtimoiy hayotning normalari, qadriyatlari va ideallarini idrok etish shakli va usuli hisoblangan – e'tiqod. 6. Dunyoqarashning me'yoriy-tartibga soluvchi komponenti bo'lib, ijtimoiy sub'ektning ob'ektga hamda o'ziga ongli amaliy va nazariy munosabatini belgilaydigan – faoliyat tamoyillari. 7. Tarixan shakllangan yoki muayyan xatti-harakatlar qoidalari sifatida belgilab qo'yilgan faoliyat normalari, ularni shaxs yoki odamlar guruhi tomonidan amalga oshirish shaxsiy faoliyatni ijtimoiy talablarga bo'ysundirishning zarur sharti hisoblangan – turmush darajasi. Demak, dunyoqarashga hamma bilimlar ham emas, balki har qanday bilimlar ham emas, faqat inson uchun hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan, har bir tarixiy davrda inson va dunyo

²¹²Философия / Под ред. проф. В.И.Кириллова, проф. С.И.Попова, проф. А.Н.Чумакова. – Москва: Юрист, 1999. –С. 7-9.

²¹³Данилян О.Г., Тараненко В.М. Философия. – Москва: Изд-во Эксмо, 2005. –С. 10-14.

o'rtasidagi munosabatlarning mohiyatini amaliy va nazariy jihatdan ochib beradigan bilimlarga kiradi. Ishonch – bu nafaqat intellektual pozitsiya, balki hissiy holat, kuchli psixologik munosabat, o'z tamoyillari, g'oyalari va qarashlarining haqiqiylikiga ishonish. Ma'no va mohiyat jihatidan baholar bilimdan farq qiladi. Bilim haqiqatga intilish – real dunyoni ob'ektiv bilish bilan tavsiflanadi, baholar esa odamlarning intilishlari, ehtiyojlari va manfaatlariga muvofiq atrofdagi hamma narsaga alohida munosabatini o'zida mujassam etadi. Ideallarning muhim xususiyati shundaki, ular voqelikning ilg'or in'ikosidir. Shuni ta'kidlash kerakki, ijtimoiy ideal nafaqat maqsadga yo'naltiruvchi, balki ijtimoiy sub'ektning ob'ektga va o'ziga bo'lgan munosabatiga nisbatan baholovchi (aksiologik) funktsiyani ham bajaradi. E'tiqod o'zining amaliy yoki kognitiv tajribasining natijasi bo'lmagan holda, u ob'ektiv haqiqatning aniq faktlari yoki xususiyatlari sifatida qabul qilinadi, oldingi avlodlar tajribasini, kelajakka tilaklar va umidlarni idrok etish vositasi.

Dunyoqarash tuzilishi²¹⁴ning birinchi elementi insonning hissiy sohasini tavsiflaydi. Insoniyatning tarixiy shakllanishida ham, individual rivojlanishida ham sezgilar, his-tuyg'ular, hissiyotlar va ruhiy-ichki kechinmalar eng avvalo paydo bo'ladi. Ikkinchi elementi axborot va bilimlarning rolini belgilash bilan bog'liq. Axborot ham, bilim ham inson va dunyo o'rtasidagi o'zaro ta'sirning ob'ektiv tomonini tavsiflaydi. Uchinchi elementi ishonchdir. U jamiyat va shaxsning ongli ehtiyojini ifodalaydi, ularni o'z qadriyat yo'nalishlariga muvofiq harakat qilishga undaydi. Ishonch shaklida namoyon bo'ladigan ehtiyojlar mazmuni tabiat va jamiyat haqidagi ma'lum tushunchani aks ettiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, dunyoqarash strukturasi quyidagi komponentlardan iborat ekanligi ma'lum bo'ldi: bilimlar; qat'iy ishonch va e'tiqod; baholar, qadriyatlar va normalar; hissiy-irodaviy va axloqiy-irodaviy; amaliy faoliyat. Bu soha mataxassislariga juda muhim vazifa yuklaydi ta'lim va tarbiya jarayonida, ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlar, turli ijtimoiy tadbirlarda diniy dunyoqarash strukturasi har bir komponentga alohida e'tibor qaratib, ilmiy asosda tushuntirib berish talab etiladi.

* * *

²¹⁴Философия / Под общ. ред. А.А.Атанова, В.А.Туева. – Иркутск: Изд-во БГУ, 2015. –С. 10-18.